

IJTIMOİY MOSLASHUV JARAYONIDA GENDER TENGLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-599-601>

O‘rozaliyeva O‘lmasoy Kubay qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Abdullayeva Shoiraxomidovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, p.f.d., prof.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy moslashuv jarayoniga gender tengligining ta'siri haqida so'z boradi. Gender tenglik shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, gender tenglikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, shaxs, jamiyat, psixologiya, ijtimoiy moslashuv.

Abstract. This article examines the role and significance of gender equality in the process of social adaptation in society. Gender equality is analyzed as an important factor that ensures an individual's adaptation to society, the acquisition of social roles, and psychological stability. In addition, the importance of state policies aimed at supporting gender equality in the process of social adaptation is highlighted.

Keywords: social adaptation, gender equality, individual, society, identification, internalization, reflection, social role.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение гендерного равенства в процессе социальной адаптации в обществе. Гендерное равенство анализируется как важный фактор, обеспечивающий адаптацию личности к обществу, освоение социальных ролей и психологическую устойчивость. Также показано значение государственной политики, направленной на поддержку гендерного равенства, в процессе социальной адаптации.

Ключевые слова: социальная адаптация, гендерное равенство, личность, общество, идентификация, интернализация, рефлексия, социальная роль.

Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyoti shaxslarning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashuvi bilan chambarchas bog'liq ekanligi nafaqat psixologlarga, balki barcha soha vakillariga ma'lum bo'lgan haqiqatdir. Shaxslarning identifikatsiyalashuv jarayoni jamiyat hayotidan ayro holatda kecha olmaydi. Ijtimoiy moslashuv jarayoni shaxsning jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor standartlarini o'zlashtirishi, ijtimoiy rollarni qabul qilishi hamda atrof-muhit bilan uyg'un munosabatlar o'rnatishini anglatuvchi adaptatsion jarayon. Shaxs beixtiyor ijtimoiy me'yor va talablarni ichki qadriyatlarga aylantiradi, ya'ni internalizatsiya jarayonidan o'tadi. Psixologiyada ijtimoiy moslashuvni shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab va uzluksiz jarayoni deb talqin qilish mumkin. Ushbu jarayon davomida shaxs nafaqat

jamiyat talablariga moslashadi, balki jamiyat ham shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zgaradi. Ayni shu nuqtada ijtimoiy munosabatlarga kirishayotgan shaxslar o'z xulq-atvori va jamiyat talablari o'rtasidagi munosabatni anglagan holda ijobiy, yoki salbiy refleksiya hosil qiladi. Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi shaxsning psixologik barqarorligi, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda gender tengligi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida bu jarayonning tezlashuvi va barqarorlashuviga yordam beradi.

Gender tengligi - biologik jinsidan qat'i nazar erkak, ayol barcha shaxslar jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini anlatib turuvchi ijtimoiy atama. Psixologik nuqtai nazardan gender tushunchasi biologik jinsdan farqli ravishda ijtimoiy va madaniy konstruksiya sifatida qaraladi. Gender rollari jamiyat tomonidan belgilangan bo'lib, shaxs ularni ijtimoiylashuv jarayonida o'zlashtiradi. S. Bem tomonidan ilgari surilgan gender sxemalari nazariyasiga ko'ra, shaxs bolalik davridan boshlab jamiyatda mavjud erkaklik va ayollik haqidagi stereotiplarni ongida sxema sifatida shakllantiradi va ushbu sxemalar uning xulq-atvori, qaror qabul qilishi hamda o'zini baholashiga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni ular – jamiyat a'zolari qiz bola yoki o'g'il bola qilib tarbiyalanadi. O'g'il bola yig'lamasligi kerak, qiz bola doimo xushmuomala bo'lgani ma'qul, kabi stereotiplar asosida ulg'ayadilar. Gender tengsizligi hukmron bo'lgan jamiyatda bu sxemalar shaxsning imkoniyatlarini cheklab, ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtirib yuborishi mumkin.

Ijtimoiy moslashuv jarayonida gender tengligi shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilinishi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi uchun muhim psixologik sharoitni ta'minlab beradi. Teng imkoniyatlar mavjud bo'lgan muhitda shaxsda o'z-o'zini hurmat qilish hissi orqali rivojlanadi, ijtimoiy faollik ortadi va ichki motivatsiya o'z kuchini ko'rsatadi. Aksincha, gender asosidagi kamsitish, stereotiplar va cheklovlar shaxsda psixologik zo'riqish, xavotir, ishonchsizlik va ijtimoiy chetlanish kabi holatlar psixologik travmalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Gender stereotiplari ijtimoiy moslashuvga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Jamiyatda erkaklar va ayollarga nisbatan qat'iy belgilangan ijtimoiy kutilmalar shaxsning moslashuv strategiyalarini qiyinlashtiradi. Masalan, ayollarning faqat oilaviy vazifalar bilan cheklanishi yoki erkaklarning hissiy holatini ochiq ifoda etmasligi kerak degan qarashlar shaxsda ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. Bunday ziddiyatlar esa shaxsning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Gender tenglikka asoslangan yondashuv esa ijtimoiy rollarning moslashuvchanligini oshiradi, shaxsga o'z qobiliyat va ehtiyojlariga mos rollarni tanlash imkonini beradi hamda moslashuv jarayonini psixologik jihatdan yengillashtirib, hissiy zo'riqishni kamaytiradi. Gender tengligining ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyati psixologik salomatlik bilan ham bevosita bog'liqdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, gender asosidagi tengsizlik va kamsitish stress, depressiya va boshqa ruhiy

buzilishlar xavfini oshiradi. Doimiy psixologik bosim ostida yashovchi shaxs jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi, ijtimoiy munosabatlardan chekinadi va o‘zini yolg‘iz his qilib, bu suidsidga ham sabab bo‘lishi mumkin. Gender tenglikka asoslangan jamiyatda esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi mustahkamlanadi, shaxs o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi va ruhiy barqarorligini ta‘minlaydi.

Gender tengligi ijtimoiy institutlar faoliyatida ham muhim rol o‘ynaydi. Oilada teng munosabatlarning mavjudligi bolalarda sog‘lom ijtimoiylashuv va moslashuv asoslarini shakllanishiga ijobil omildir. Ota-ona o‘rtasidagi tenglik bolalarda adolat hissi, ijtimoiy ishonch va empatiya rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta‘lim muassasalarida gender tenglik o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini erkin namoyon etishiga imkon yaratadi, kasbiy yo‘nalishni ongli tanlashga yordam beradi va ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi. Mehnat bozorida esa gender tenglik kasbiy integratsiyani kuchaytiradi, jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantiradi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Bizning jamiyatimizda gender tengligi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan va doimiy diqqat markazida turadi. “O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta‘minlash va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan strategik hujjat” (SQ-102-V-son, 18.03.2025) mavjud bo‘lib, unda xotin-qizlar uchun alohida shart-sharoitlar yaratilishi belgilangan. Ushbu qaror 2030-yilgacha gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha strategik maqsad va vazifalarni belgilaydi. Qaror Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘un ishlab chiqilgan va gender tenglikni milliy siyosatga chuqur integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy moslashuv jarayonida gender tengligi muhim psixologik va ijtimoiy omil hisoblanadi. Gender tenglik shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishi va ruhiy barqarorligini ta‘minlaydi. Jamiyatda gender tenglikni rivojlantirish orqali shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik mustahkamlanadi, ijtimoiy farovonlik oshadi va jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ–103-son qaror, 2025-yil 14-mart. — Toshkent, 2025. — URL:
2. Андреева Г. М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2001.
3. Bem S. L. Gender Schema Theory. — Psychological Review, 1981.
4. Eagly A. H., Wood W. Social Role Theory of Sex Differences. — Psychology of Gender, 2012.
5. Кон И. С. Психология пола. — СПб.: Питер, 2004.
6. Unger R. Handbook of the Psychology of Women and Gender. — Wiley, 2010.
7. World Health Organization. Gender and Mental Health. — WHO Press, 2013.